



ERTAKLARDA EZGULIKNING AZALIY AN'ANALARI

Egamberdieva O'g'iloy

Sharof Rashidov tumani 50-maktab ona tili va
adbiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12731135>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ertak janri va uning xususiyati haqida fikr yuritilgan, shuningdek, ularning o'ziga xos hayot tarzi, milliy qadriyatlari, urf-odatlar kabi jihatlariga to'xtalgan.

Kalit so'zlar: ertak, adabiy ertaklar, ertaklarda falsafiylik, janr xususiyatlari.

Qadim-qadimdan dunyo xalqlari bir -birlari bilan o'zaro hamkor va hamnafas bo'lib hayot kechirib kelishadi. Ularning o'ziga xos hayot tarzi, milliy qadriyatlari, urf-odatlar jumladan, xalq og'zaki ijodi asrlar osha o'z qadrini kelajak avlodga baholi qudrat avaylab yetkazib kelinmoqda. Dunyo adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan ertaklar yozma adabiyotga o'tish jarayoni, omillari va sharoiti haqida ilmiy izlanishlar olib borish adabiyotshunoslik sohasining qiziqtiruvchi masalalardan biri sanaladi. Qolaversa, ertak kitoblarning targ'ibi ayni paytda kitobxonlikning targ'ib qilinishidan ham dalolat beradi.

Bosib o'tilgan tarixiy taraqqiyotimiz davomida xalqimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyat sohalarida katta yutuqlarga erishdi. O'zining boy tarixiga, betakror an'analarga ega bo'lgan o'zbek adabiyoti shu kunlarda dunyoga ovoza bo'lgan ulkan ma'naviy xazinalardan bo'lib bormoqda. Bunday holda hamma olimlar qatori milliy an'analarning, shuningdek, qadim tarixga ega bo'lgan xalq og'zaki ijodining ahamiyati hamda o'rni juda ulkan.

Darhaqiqat yozma adabiyotning xalq og'zaki ijodiga bo'lgan ahamiyati adabiyot tarixining juda muhim jihatlaridan bo'lib qolmoqda. O'zbek xalqining boy og'zaki ijodi qadimgi davrlarga borib taqaladi. "Turkiylar o'z yozma adabiyotlarini vujudga keltirmasdan burun ma'nosi boy, shakli xilma-xil bo'lgan og'zaki adabiyot – qo'shiqlar, ertaklar, dostonlar yaratgan edilar," – degan edi Oybek.

So'zsiz bu hol, Sayfi Saroyi, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Durbek, Alisher Navoiy, Gulxaniy, Maxmur, Furqat, Muqimiy, singari ulug' ijodkorlar ijodiga folklor asarlari ta'sirini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, XX asr o'zbek adabiyotida folklorga qiziqish, unga ijodiy yonashish adabiy ertaklarni yaratishda muhim omil bo'ldi. Shuningdek bu holat, adabiyotda boshqa janrlarning paydo bo'lishiga omil bo'ldi. Ya'ni, xalq ertaklari, rivoyatlar va afsonalar negizida, shularning asosida



paydo bo'lgan adabiy ertaklar: ertak-dostonlar, ertak-she'rlar, yozilishida asosiy manba bo'ldi desak yanglishmagan bo'lamiz.

Xalq og'zaki ijodi yozuvchi va shoirlarning g'oyaviy-badiiy jihatdan o'sishida, uslub xilma-xilligini yaratishda katta ijodiy maktab bo'lib qoldi. Yozma adabiyotda o'z ifodasini topgan folklor qahramonlari va motivlari adib mahorati sababli qayta jilolanib, haqiqiy asar bo'lib yozma adabiyot xazinasiga aylandi. So'z san'atining bu ikki shakli o'rtasidagi o'zaro ta'sir tarixi eng qadimgi davrlarga, ya'ni yozma adabiyotning paydo bo'lish vaqtiga borib taqaladi.

Tarixiy davrlardan har bir zamon adiblari ertak haqidagi mavzularida ijod qilib keldilar. Ko'hna Sharqda Nizomiy, Rudakiy, Fuzuliy, Abulqosim Firdavsiy, Jomiy, Navoiy Bedil, Muqimiy, Berdaq, Gulxaniy, singari ulug' insonlar o'z ijodxonalarida xalq og'zaki ijodidan oziqlanib, ajoyib samaralarga erishdilar, o'lmas obrazlar yaratishda folklor xazinasidan qanday ta'lim olish, nimalarni o'rganishning ibratli tajribalarini namoyon etdilar.

O'tgan asr o'zbek adabiyotining haqiqiy haqligi va yuksak saviyasi uchun kurashgan, uning qulamas poydevorini shakllantirishda jonbozlik ko'rsatgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, H.H.Niyoziy xalq og'zaki ijodi materiallarini qayta ishlashda ibrat bo'larli o'ziga xos maktab yaratishdi. G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Sulton Jo'ra singari o'zbek yozuvchilari bu maktab an'alarini o'ziga xos yo'lda davomiy rivojlantirdi. Bugungi o'zbek adabiyotida ijod qilayotgan ijodkorlar bu an'anani davom ettirib kelyapti.

So'z san'ati bilan xalq og'zaki ijodining o'zaro ta'siri va munosabati xususida so'z borganda, san'atkorning folklor asarlariga ko'r-ko'rona ergashmasligi, ularga taqlid qilmay, o'z ijodiy niyati, uslubi, qarashi jihatidan yondashishi ko'zda tutiladi. Shuningdek, folklor qahramonlari asosida adabiy ertaklar va xalq og'zaki ijodiga tayanib yaratilgan asarlar xususida fikr yuritilsa, yuqoridagi ta'riflangan asarlarda, xalq ijodiga ohangdosh va yaqin bo'lgan obrazlarning tahliliga alohida ahamiyatga molik bo'ladi.

“Malikayi Husnobod” ertagi ta'sirida Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostoni yaratilgan bo'lsa, “Semurg” ertak-dostonida ijodkor aniq bir millatning ertagini asos qilib olmaydi, aksincha ertakda aqlga sig'mas qahramonliklar to'g'risida bayon qiluvchi “Kenja botir” ertagi, yaxshilik hech qachon yerda qolmaydi maqoliga javob qaytaruvchi “Semurg” haqidagi Sharq xalqlari ertaklari va boshqa folklor asarlari, chunonchi, “Zevarxon” dostonining motivlaridan mohirona foydalanadi. Misol uchun, Parizodning sharti shundayki,



unda Bunyod vaxshiy devni yengish yo'lidagi qahramonligi bevosita yodimizga Kenja botirning sarguzashtlarini yodimizga soladi.

Agar Kenja botirning mushkullarini oson qilgan uchar ot bo'lsa, Bunyodning butun sinovli hayoti davomida Semurg' qush hamkor va madadkor bo'ladi. Parizod qo'ygan shartlar ertak va dostonlardagi, masalan, Alpomish dostonidagi Oybachin shartlarini eslatadi. Lekin shoir, folklor asarlaridan farqli o'laroq, shoh oilasida tarbiya topgan Parizodni o'z va'dasida turmaydigan, mardlik va vafoning qadriga yetmaydigan takabbur shoh qizi sifatida tasvirlaydi. Shoir folklor asarlaridagi shart qo'yish pryomidan uning salbiy xususiyatlarini ochish maqsadida foydalanadi. Aslini olganda, Parizod tomonidan qo'yilgan shartlar asar syujetini harakatga keltiruvchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Natijada voqealar birin-ketin bog'lanib ketadi. Sinov shartlari esa yozuvchining qo'lida voqea rivojining kaliti bo'lib xizmat qiladi.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, har bir yozuvchining folklordan oziqlanish prinsipi turlicha va o'ziga xosdir. Hamid Olimjonning adabiy ertak (ertak-doston) larida folklor asarlarining shakli, obrazlari, mubolag'aviy jarayonlar, obrazlarni mahorat bilan tasvirlashga xayrixohlik sezilsa, Oybek dostonlarida folklor namunalarini o'z ijodiy laboratoriyasida shunday qayta ishlaydiki, natijada asarda folklor materiallarining mazmuni va ruhigina saqlanib qoladi (O'ch, Baxtigul va Sog'indiq dostonlari).

Folklor motivlari asosida, uning ta'sirida yaratilgan epik asarlar orasida ertak-dostonlar keng o'rin egallaydi. Agar shoir Zafar Diyor boshqird milliy ertaklari motivi asosida "Burgut" she'r-ertagini yaratgan bo'lsa, o'zining tarbiyaviy-axloqiy mavzudagi bir ertak-dostonini "Yangi ertak" deb ataydi. Bu ertakda shoir voqeani hikoya qilish, fikrni aks ettirishda xalq ertaklari shakli va tasvir usulini qo'llaydi. Bu o'rinda tojik xalq ertagi asosidagi "Zangori gilam," "Qaldirg'och," "Jannat" nomli yangi ertaklarni (shoirning o'zi alohida ta'kidlaganidek, bular chindan ham Yangi mazmundagi ertaklardir) yaratgan Sulton Jo'raning izlanishlari ham xarakterlidir. Bularda shoir ertaklardagi tasvir uslubi va poetik vositalardan unumli foydalanadi.

Folklor motivtlaridan yana biri shoxli Iskandar to'g'risidagi ertak-afsona bo'lib, u G'arbda ham, Sharqda ham turli millat vakillari o'rtasida keng tarqalgan. Ertak mazmunicha, Iskandarning boshida shoxi bor bo'ladi, u buni hammadan sir tutadi. Shuning sababli, sochini olgan hamma sartaroshni o'linga mahkum qiladi. Bora-bora sartaroshlar soni kamayib, oxirgisi kelganda, shohning sirini fosh etmaslik sharti bilan uni tirik qoldiradi. Qat'iy so'z bergan usta bu sirni hech ichiga sig'dira olmay, quduqqa aytadi. Davrlar o'tib, u yerlar qamishzorga



aylanadi. Bu qamishdan nay yasab chalgan cho'pon sirdan ogoh bo'ladi. Shu tarzda sir oshkor bo'ladi. Shunday qilib, bu hodisa yozma adabiyot bilan xalq og'zaki ijodida turlicha talqin qilinadi. O'zbek xalq og'zaki ijodida shoxli Iskandar deb yuritiluvchi bu ertakning turli variantlari bor. Bularning ayrimlari yozib olinib, nashr etilgan.

Xulosa qilib aytganda, Yozuvchi afsona va rivoyatlardagi falsafiy fikrlarni to'la saqlab, ba'zan esa, o'zining fikr-o'ylari bilan to'ldiradi, u narsadan ijodiy fantaziyasini boyitadigan, xayol ufqlariga turtki beradigan juda ko'p muammolarga javob oladi ayni chog'da uni bugungi voqelik bilan bog'laydi. Shu tarzda mifologik mazmun, uning Inson va hayot muammolari bilan hamohang tomonlari zahirida tashkil topgan voqealar badiiy asar ichiga kirib folklor tasirida adabiy ertaklar yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maqsud Shayxzoda. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'G'ulom nash., 1990.56b
2. Qur'onov D. , Mamajonov Z., SHERALIEVA M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr. 2014. -I. 376.
3. Safarov O. Oliy o'quv yurtida "Bolalar adabiyoti" fani muammolari. // Til va adabiyot ta'limi, 1994, 2-3-s., 4-6-b.
4. Tursunov Z., Rahimov H. Olmon ertaklaridagi obrazli ifodalar .// Madaniyatlararo df bkvbq-texnik aloqalarda tarjimaning o'rni hamda roli. – Namangan., 2014. – B. 334.
5. www.ziynet.uz